BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI VA MUSTAQIL FIKRLASH QOBILYATINI O'STIRISH

Usmonova Shohistaxon Shukurulloxon qizi
Tolibjonova Sevara G'ulomjon qizi
GulDPI "Boshlang'ich" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari.

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang'ich ta'limda matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish , so'z boyligini oshirish haqida bayon etilgan. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda talimiy tarbiyaviy bilimlar hosil bo'lishi va ularni rivojlantirish usullari ko'rib chiqilgan.

Kalitso'zlar: Ta'lim,tarbiya ,metod,usul,uslub,faoliyat,matn ,vosita ,yozma ish,hikoya ,ertak,ijodiy ish,qobiliyat.

Annotation. This thesis describes the development of students' oral and written speech, their thinking ability, and increasing their vocabulary by working on the text in primary education. Methods of formation of educational and educational knowledge in students by working on the text and their development were considered.

Key words: Education, education, method, method, style, activity, text, tool, written work, story, fairy tale, creative work, ability.

"Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlash — odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag'rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir".

Bolaning tarbiyasining muhimligi kabi ta'limi ham birdek muhimdir.Albatta bu ta'lim va tarbiyani o'quvchilarga qanday usulda, qaysi darajada yetkazib berish boshlang'ich sinf o'qituvchilarning qo'lida hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim berar ekan bu ta'limning samarasi qanchalik ekanligi o'quvchining tashqi ko'rinish,odob va nuqtida namoyon bo'ladi. Buning uchun eng avvalo o'quvchi o'zining o'zligini insoniyligini aqlan va ruhan tushunishi va bu bilimlarni olishi zarurligini bilishi ,ta'lim olish uchun harakat qilishi zarur.

O'quvchilar ilk maktabga qadam qo'yar ekan ularning nutqi hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Bundao'qituvchi o'quvchilarning nutqini va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish rivojlantirishi uchun bir qancha vazifalarni bajarishi kerak. Yaxshi rivojlanmagan nutqni rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi vosita, yani matndan foydalaniladi.Bunda o'qituvchi matnning og'zaki va yozma turlaridan foydalanadi. Matn nutqning yozuvdagi ifodasi. Matnning og'zaki ko'rinishi bu- nutq.Yozma ko'rinishiga bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan: ertak, hikoya asarning turli ko'rinishlari (badiiy ilmiy)roman, insho maqola, bayon masal , she'r ,doston, topishmoq, tez aytish, maqol kabilardan foydalanadi. Boshlang'ich sinflarda esa asosan she'r, topishmoq, maqol, hikoya tez aytish, insho, bayonlardan foydalaniladi. Yuqoridagi matn turlaridan foydalanib o'qituvchi matn ustida ishlash vazifalarini olib boradi.O'quvchi bu vazifalarni osondan murakkabga qarab bajarib boradi. Masalan, birinchi sinflarda o'quvchilar harf ,bo'g'in, gap, hikoya , ertak, she'r, maqollar bilan tanishadilar. O'quvchilar o'zlari matn tuzishga harakat qiladilar. Uchinchi, to'rtinchi sinflarda esa ularning so'z boyliklari oshadi va bayon, inshoyozushni mashq qiladilar. Buning uchun ular eng avval matn ustida ishlash ishlarini olib borgan bo'lishlari kerak. Matn ustida ishlash o'quvchilarning nutqini

tafakkurini aqlini rivojlantiribgina qolmay , ularni diqqatini jamlashga, qaror chiqarishga, mulohaza qilishga ,xulosa qilishga o‘rgatadi.Boshlangich ta'lim o‘quvchilarida nutq va uni o‘stirish har doim dolzarb mavzu bo‘lgan. Nutq kishi faoliyatining turi til vositalari asosida aqlni va tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar vazifasini, o‘zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish ishini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi va uni o‘z ishining mahoratli kishisi sifatida namoyon qilishga yordam beradi.. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqqiyatli ta'lim olish qurolidir,o‘qituvchi uchun esa ta'lim berish quroli.

O‘quvchilardan nutqni rivojlantirish uchun o‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasini hosil qilishimiz kerak. O‘quvchilarning nutqi o‘z-o‘zidan rivojlanib qolmaydi. Buning uchun o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligi zarur. Bunda o‘qituvchiturli xil matn (hikoya, ertak, badiiy asar, masal, topishmoq va maqollar)ustida ishlash vazifalarini bajaradi va o‘quvchilarning nutqini tekshiradi,rivojlantiradi. Turli usul va metodlardan foydalanadi.

Nutqini o‘stirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir .Qayta hikoyalashning bir qancha turlari bor:

- O‘quvchi o‘qilgan matn mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishi;
- matn mazminiga mos tashkil etilgan sahna korinishlar orqali;
- mat yuzasidan testlar ishlash orqali;
- matnni so‘zlab berishi orqali;
- metodlar orqali;

Nutqiy xatolarga noto‘g‘ri (n oo‘rin) tanlangan so‘zlar, noto‘g‘ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto‘g‘ri ishlatish kiradi.Boshlang‘ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin,chunki ularni to‘g‘rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy m a’lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o‘rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to‘g‘rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi:

1. Bir so‘zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o‘quvchi so‘zni ishlatishga kam e ’tibor beradi va faol lug‘atidagi so‘zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o‘quvchining so‘z boyligi kam, sinonim lam i bilmaydi, takrorlanadigan so‘zlar o‘rniga olmoshlardan foydalana olmaydi.

Agar o‘qituvchi bir so‘zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning m a’nodoshlaridan yoki shu so‘z o‘rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o‘quvchi matnni e ’tiborbilan o‘qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.

2. So‘zning ma'nosini yoki ma’no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq m a ’nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so‘z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

3. Shevaga xos so‘zlardan foydalanish. O‘quvchilar bunday so‘zlarni ota-onalarining nutqi va nutqiy sharoit ta’sirida qo‘llaydilar. Ularda adabiy tilda qo‘llanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida shevaga xos so‘zlarni ishlatmaslik ko‘nikmasi hosil qilinadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi: Nutq til vositalariga boy , aniq, mantiqiy ,tushunarli , ifodali, to‘g‘ri bo‘lishi lozim.

O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqida yo‘l qo‘ygan nutqiy xatolarni o‘z vaqtida to‘g‘rilab borish zarur. O‘quvchi yo‘l qo‘ygan xatosining to‘g‘ri variantini o‘zlashtirsin, imkoni bo‘lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to‘g‘rilashning eng foydali usuli yo‘l qo‘ygan xatosini o‘quvchining o‘zi to‘g‘rilashi hisoblanadi, agar o‘quvchi xatosini to‘g‘rilay olmasa, uni o‘qituvchi to‘g‘rilaydi.

Qayta hikoyalashning bir qancha turlari bor:

- O‘quvchi o‘qilgan matn mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishi;
- matn mazminiga mos tashkil etilgan sahna korinishlar orqali;
- mat yuzasidan testlar ishlash orqali;

○ matnni so‘zlab berishi orqali;

Bundan tashqari "Ona tili ta’limi mazmuni” o‘quv-metodik qo‘llanmasi mualliflari H.Ne'matov, A.G'ulomovlar o‘quvchilarni ijodiy yozma ish matn ustida ishlashga o‘rgatishda egallangan bilimlarni quyidagi ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar:

"Ijodiy yozma ish" (matn) tushunchasi: rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa buyum, voqyea - hodisa tasviri;

-o‘quvchi (muallif) va borliq; yozma ishning maqsadi; yozma ish- o‘quvchining (muallifning) o‘zligi;

- yozma ishga mavzu tanlash; uni tayyorlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqea - hodisa) hamda turli mavzuda matn yaratish;

-yozma ish mazmunining mavzu va uning nomlanishi bilan uyg‘unligini ta'minlash;

-berilgan mavzu, erkin mavzu ustida ishlash;

-mavzuni yoritish uchun zarur material: o‘quvchining bilimlari, kuzatishlari, taassurotlari, mushohadalari, qiyos va o‘xshatishlari, hukm va xulosalari;

-yozma ishning rejasi, unga qo‘yilgan asosiy talablari; tor reja, keng reja;

-manzilgohni yozish;

-mavzuni yoritishda mazmun izchilligi; "xat boshi" tushunchasi, yozma ish ustida qayta ishlash; uyadosh, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so‘zlardan foydalanish;

-matnning uslubi (gap qurilishi), imlosi va tanish belgilari ustida ishlash;

-ishni oqqa ko‘chirish;

-xatolar ustida ishlash.

Demak, matn ustida ishlash, matnni tahrir qilish mashg‘ulotlari, o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni kafolatlaydi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta'limda matn ustida ishlash orqali og‘zaki va yozma nutqlarini fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib,tafakkurini kengaytirib,diqqatini yaxshilab ,aqlini oshirishga erishiladi. Bundan tashqari xatolar ustida ishlanganda o‘quvchilar o‘z xatolari nimada ekanligini bilib, uning to‘g‘rilab, qayta xato qilmaslikka shevaga xos so‘zlarni ko‘p qo‘llamaslikka, jozibali, kitobiy so‘zlarni qo‘llab,serma'no so‘zlaridan foydalangan yoqimli nutq yaratadilar. Turli matnlar o‘qigan va u matnlar ustida ishlagan o‘quvchining nutq boyligi oshib, fikrlash doirasi kengayib boradi.Ko‘plab asarlar o‘qigan va tahlil qilgan o‘quvchilardan kelajakda ajoyib ritorika namoyondalari yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Donyorova Mohinur "o‘quvchilarda nutqni o‘stirish da matni yaratish metodining o‘rni". Jizzax 2022- yil
2. H.Ne'matov, A.G'ulomovlar "Ona tili ta’limi mazmuni” o‘quv-metodik qo‘llanmasi Toshkent 2021-yil
3. Karima Qosimova|, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva,Sharofjon Sariyev."Ona tili o‘qitish metodikasi "Toshkent 2009- yil